

Qabul qilindi: 15.11.2024  
28.12.2024

Chop etildi:  
UDK:808.54

## QADIM ARABLARNING ILK BADIY TA'BINI SHAKLLANTIRGAN OMILLAR

*Djurayeva Feruza Shukurovna*  
*Oriental universiteti*

*Sharq tillari kafedrasi dotsenti (PhD)*

## THE FACTORS THAT SHAPED THE EARLY ARTISTIC TASTING OF THE ANCIENT ARABS

*Djuraeva Feruza Shukurovna*

*Oriental University Associate Professor (PhD) of the  
Department of Oriental Languages*

## ФАКТОРЫ, ФОРМИРОВАВШИЕ РАННИЙ ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ВКУС ДРЕВНИХ АРАБОВ

*Джуреева Феруза Шукуровна*  
*Университет Oriental*

*Доцент (PhD) кафедры восточных языков*

**Annotatsiya:** Maqolada tarixi uzoq ming yillarga tutash arab johiliya adabiyoti, undan keyingi ilk o'rta asrlardagi nasriy va nazmiy asarlarning bu qadim xalq tamaddunida paydo bo'lishi sabablari va arablarning eng qadimiy davrlaridanoq mavjud bo'lgan yuksak badiiy ta'bi manbalari ilmiy tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** arab adabiyoti, nasr, nazm, til, mental, qadim, badiiy, ta'b, arablar.

**Abstract:** The article scientifically analyzes the reasons for the emergence of Arab Jahili literature, the history of which dates back thousands of years, and the subsequent early medieval prose and poetry works in this ancient civilization, as well as the sources of the high artistic taste of the Arabs, which existed since ancient times.

**Key words:** arabic literature, prose, poetry, language, mental, ancient, artistic, taste, Arabs.

**Аннотация:** В статье научно анализируются причины возникновения арабской джахилийской литературы, история которой насчитывает тысячелетия, и последующие раннесредневековые прозаические и поэтические произведения в этой древней цивилизации, а также истоки высокого художественного вкуса арабов, существовавшего с древнейших времен.

**Ключевые слова:** арабская литература, проза, поэзия, язык, ментальный, древний, художественный, вкус, арабы.

### KIRISH

Arab adabiyotining eng ilk namunalari ikki xil: she'riy va nasriy shaklda mavjud bo'lgan va ularning har ikkalasi og'zaki adabiyot edi. Arab johiliya adabiyotidan she'riyat namunalari bizning kunlarga ko'p hajmda yetib kelgan. Bu adabiyotning paydo bo'lishi va rivojlanishi, uni davrlashtirish haqida ko'plab ilmiy taxminlar mavjud. Arablarning johiliya adabiyoti, xususan she'riyati, 16 asrdan boshlab ko'plab Yevropa sharqshunoslarining, 19-asr ikkinchi yarmidan

boshlab rus sharqshunoslarining e'tiborini ham tortgan.

Johiliya she'riyati dunyo ilmiy hamjamiyatida eng ko'p o'rganilgan va tadqiqotlar olib borilgan mavzulardan hisoblanadi. Ammo, taassuf bilan aytish lozimki, arab qadim nasri johiliya arab she'riyatichalik adabiyotshunoslar va adabiyot tarixchilari nazarini tortmagan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, arab adabiyoti ilk yoki kech o'rta asr adabiyoti tom ma'noda arab xalqining notiqlik mahoratini turli shakllarda, turli maqsadlarda ishlatganini namoyish etadi. Bu esa o'z



[fairuz.djuraeva@gmail.com](mailto:fairuz.djuraeva@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0007-9603-1643>

navbatida, qadim arab notiqligida ko'plab an'analar hamda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan ko'p sonli jihatlarni o'rganish ehtiyojini vujudga keltiradi. Bunday qadimiyatga ildiz otgan an'analar va o'ziga xos xususiyatlarni arab xalq genetikasi va tilga mahoratidan ayri o'rganib bo'lmaydi.

Arablarning o'rta asr manbalarida johiliya, ilk islom va ummaviy xalifalar davrlari adabiyoti, uning shakllari va namunalari haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan va ular arablarning eng qadim zamonlaridagi adabiy merosi haqida zamonaviy asrlarda amalga oshirilgan ilmiy ishlar uchun eng muhim manba vazifasini bajarib kelmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Oxirgi yillarda ilk o'rta asrlar arab notiqligi, qadim arablarning tilga mahorati tarixi Kembrij universiteti olimasi T. Qutbuddin<sup>1</sup> asarida yoritildi. Arab poetikasi bilan shug'ullangan L.Jons<sup>2</sup>, M.V. Vij<sup>3</sup>, L.Harblar<sup>4</sup> balog'at ilmini tushuntirishda ham arab larning badiiy nutqdagi mukammalliklariga ham to'xtalgan. Z.Mubarak<sup>5</sup>, J.Zaydon<sup>6</sup>, Sh.Dayf<sup>7</sup>, H. al-Faxuri<sup>8</sup> kabi arab olimlari o'rta asrlar arab noitiqligi haqida umumnazariy ma'lumotlarni bergan. Mazkur davr arab notiqligi namunalari bevosita o'rgangan arab olimlari sifatida Ihsan an-Nas<sup>9</sup>, Ahmad al-Havafiy<sup>10</sup>, Muhammad Abu Zahra<sup>11</sup>, Ahmad Hasan az-Zayat<sup>12</sup>, Ismoil Ali Muhammadlar<sup>13</sup>ni ko'rsatish mumkin.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Ilmiy kuzatishlarimizga ko'ra, arablarning tili va adabiyotiga bag'ishlangan deyarli barcha asarlar eng avvalo bu sahroyi xalqning geografik hududiy joylashuvi, Arabiston yarim orolidagi tabiat manzarasi, ko'hna zamonlardagi arab kishisining hayot tarzi, uning shafqatsiz tabiiy sharoitlardagi

tinimsiz kurashlari, o'zaro qabilaviy munosabatlar, qadim an'analar haqida ma'lumot berishdan boshlanadi.

Ilk o'rta asrlar arab nasrini, arablarning eng ilk davrlardagi nasr haqidagi tasavvurlarini tushunish uchun adabiyotlarda nima sababdan aynan shunday tanishtiruvchi, ma'rifiy ma'lumotlar berilgani diqqatimizni tortdi..

Arablarning nasriy yoxud nazmiy merosi islomdan avvalgi davrlardanoq mavjud bo'lgani, bu eng qadim adabiyotdan johiliya she'riyati bizning kunlarga ko'p yetib kelgani, ammo manbalarda islomdan avvaldanoq arablarda nasr va uning turli ko'rinishlari mavjud bo'lgani haqida takror-takror qayd etiladi.

Johiliya adabiyoti bugungi kun arabshunoslari-yu, adabiyotshunoslarini hayratga solarli darajada adabiy me'yorlarga solingani, yoki arablarning so'z san'atidan faxrlanishlari va bundaylarga yuksak ehtiromi, ulardagi balog'at va fasohatli kalom tushunchalari – bularning barchasi arablarning ehtimol tarix qayd qilinmagan davrlardayoq badiiy ta'bga ega bo'lganliklari faktini tasdiqlaydi.

Bunday adabiy tajribaning boshi qayerda? Uning paydo bo'lishi qanday ro'y bergan?

“Johiliyatda arab qabilalarining ko'p qismi sahrolarda muqim ham yashashgan. Biroq ularda hayotlarini tartibga soluvchi nazorat qiluvchi umumiy qonunlar, davlat va jamiyat yo'q edi. Badaviylar maishiy muammolaridan eng kattasi, biroq eng zaif ko'rinishda zohir bo'ladigani - qo'shni qabilalarning bosqinlari, g'oratlari edi. Bundan tashqari, insonning ruhiyati, kayfiyati, moli-joni, istaklarini himoya qilish, tilda o'zaro nasl-nasab uchun raqobatlashish, o'zlarini maqtab faxrlanish,

<sup>1</sup> Qutbuddin T. *Khutba: The Evolution of Early Arabic*

*Oration in Classical Arabic Humanities in their own Terms: Festschrift for Wolfhart Heinrichs. Ed. Beatrice Gruendler and Michael Cooperson. – Brill, 2008. – P. 176-273.*

<sup>2</sup> Jones L.G. *The power of oratory in the medieval Muslim world.* Cambridge University Press, 2012.

<sup>3</sup> Wege V.M. *Arabic rhetoric: main idea, development, parallelism, and word repetition* (2013). EWU Masters Thesis Collection.

<sup>4</sup> Harb L. *Arabic Poetics: Aesthetic Experience in Classical Arabic Literature.* – New Jersey: Princeton University, 2005.

<sup>5</sup> زكي مبارك، *النثر الفني في القرن الرابع الهجري*، ج-1، مؤسسة الهنداوي، القاهرة، 1934.

<sup>6</sup> جرجي زيدان، *تاريخ أدب اللغة العربية*، مؤسسة الهنداوي للتعليم والثقافة، القاهرة، 2012. (<http://www.hindawi.org>)

<sup>7</sup> شوقي ضيف، *تاريخ الأدب العربي*، دار المعارف، القاهرة، 1960

<sup>8</sup> Аль-Фахури Х. *История арабской литературы*. Т.1. Пер. с арабского. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1959.

<sup>9</sup> إحصان الناس، *الخطابة العربية في عصرها الذهبي*، دار المعارف، القاهرة، 1963.

<sup>10</sup> أحمد محمد الحوفي، *فن الخطابة*، ط 4، دار نهضة مصر للطباعة والنشر، القاهرة، 1978.

<sup>11</sup> الإمام محمد، أبو زهرة، *الخطابة (أصولها) و تاريخها في أزهر عصورها عند العرب*، دار الفكر العربي، الكويت، 1980.

<sup>12</sup> أحمد حسن الزيات، *الأدب العربي و تاريخه*، دار المعرفة، ط4، بيروت، 2008.

<sup>13</sup> الدكتور إسماعيل علي محمد، *فن الخطابة و مهارات الخطيب*، دار الكلمة للنشر و التوزيع، القاهرة، 2016.

fazilat sohiblari ekanliklarini isbotlash kabi mavzularda ular soʻz sanʼatiga ehtiyojmand edilar”<sup>14</sup> yoki “Johiliya arablari yashagan hayot sharoiti ularning yuksak mahorat bilan badiiy matn yaratishlariga yetarlicha imkon yaratib bergan. Ularning bir-birlari bilan atroflarida kechayotgan hodisalar, bir-birlarini bogʻlaydigan ijtimoiy; bir yagona qabila aʼzolarining ichida yoki bir-biriga ittifoqdosh qabilalarning birga - turli-tuman masalalarni hal etish va maslahat qilish uchun yigʻilishlari; yoki yovlashayotgan qabilalar oʻrtasidagi nizolarni tugatish, ixtiloflarni bartaraf etish uchun majlislar, elchilar va turli delegatsiya - vakillar jamoasini yuborishni talab qiluvchi turli munosabatlar, katta umumqabila marosimlari kabi koʻplab tadbirlar boʻlib turgan va bularning barchasida keng qamrovli ishlar taqdim etilgan. Tilga olingan jamiki ishlar, vaziyatlarning hammasi fasih qavl va baligʻ iboralarga tayangan holda olib borilardi. Bulardan tashqari, kunduzlik muammolar nihoyasiga yetgach, tunda oʻtadigan tungi suhbatlar, olovlar atrofida zich boʻlib doira qurishlar, yoki salqin shabadaga koʻkrak tutib yurishlar - barchasi sanʼatga iqtidorli talantlar, ularning adabiy faoliyatini mashq qildirishlari uchun oltin fursatlar tayyorlar, yaratar edi. Yaʼni, yigʻilganlarda hayrat, taajjub uygʻotish uchun sabab boʻla oladigan narsalar - qissalar, xabarlar yoki badiiy taʼbirda oʻz mayl - istaklari, iqtidoriga mos ravishda nasr yoki nazmda ijodlarini namoyon etardilar. Har bir yuksak kalom sohibini ruhlantiradigan narsa, bu ularni katta-yu kichik, erkagu ayol eshitishi ediki, shu eʼtirof kuchi bilan mahoratlarini yanada charxlar edilar.”<sup>15</sup>

Qadim arablarning badiiy taʼb meʼyorlari zamonlar osha sayqallanishi sabablari mashhur zamonaviy arab yozuvchisi va tanqidchisi tomonidan yanada aniqroq taʼriflangan: “Kimki johiliya asriga va unga taalluqli xabarlarga murojaat qilsa, bu oxirgi shakldagi nasrning oʻsha paytda arablar hayotida muhim rol oʻynaganini koʻradi, chunki johiliya arablari aniq oʻz tarixi, otliq chavandozlari-kavaleriyasi, voqea-hodisalari, shohlari haqidagi qissalariga haddan ortiq qiziqar edilar. Tunda oʻz chodirlari atrofida yigʻilib vaqtlarini shularga bagʻishlashar, ular orasida

qoʻshni millatlar, xalqlar bilan aralash afsona va asotirlar haqida xabarlar aylanar edi. Paygʻambar siyrasida Nazr bin al - Haris al-Makkiy qurayshliklarga fors qahramonlari Rustam va Isfandiyor haqidagi qissalarni soʻzlab bergani keltiriladi<sup>16</sup>.

## XULOSA

Arab adabiyotshunoslarining johiliya arablarining kundalik ijtimoiy hayot tarzi haqidagi ushbu maʼlumotlari arablardagi badiiy taʼbning manbalari, islomgacha boʻlgan davrlardayoq ularda mukammal adabiyotning paydo boʻlishi va shakllanishi haqida quyidagicha ilmiy taxmin qilishga izn beradi:

birinchidan, arab kishisining soʻz sanʼatiga ulkan hirs va badiiy taʼbirda boshqalarni lol qoldirish orqali ular qalbini zabt etish istagi ularga tugʻma instinkt sifatida berilgan;

ikkinchidan, bunday nufuzli qobiliyatning mukammallashuvi, taraqqiy etishi uchun qadim arablar yashagan ijtimoiy muhit va maishiy hayot tarzi katta imkoniyatlar yaratgan;

uchinchidan, tugʻmalik va mental qadriyatlarining har kunlikda sayqallanib borishini ular oʻrtasidagi qizgʻin va kuchli raqobat muhiti talab etgan.

toʻrtinchidan, arab tilining katta geografik hududlarda tarqalgani va bu tilning katta lugʻat boyligiga ega ekanligi va badiiy vositalar yaratishga imkoniyatlaridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qutbuddin T. Khutba: The Evolution of Early Arabic Oratorin Classical Arabic Humanities in their own Terms: Festsschrift for Wolfhart Heinrichs. Ed. Beatrice Gruendler and Michael Cooperson. – Brill, 2008. – P. 176-273.
2. Jones L.G. The power of oratory in the medieval Muslim world. Cambridge University Press, 2012.
3. Wege V.M. Arabic rhetoric: main idea, development, parallelism, and word repetition" (2013). EWU Masters Thesis Collection.

<sup>14</sup> الوسيط في الادب العربي و تأريخه، تأليف الشيخ الإسكندري و الشيخ مصطفى عناني(1919)، ط1، ص21.

<sup>15</sup> تاريخ الادب الجاهلي، الجزء الاول، تأليف الدكتور علي الجندي، مكتبة الخامعة العربية، بيروت، 1966، ص133.

<sup>16</sup> ضيف ' شوقي' تاريخ الأدب العربي/العصر الإسلامي(')1963دار المعارف' ص15.

4. Harb L. Arabic Poetics: Aesthetic Experience in Classical Arabic Literature. – New Jersey: Princeton University, 2005.
5. زكي مبارك، النثر الفني في القرن الرابع الهجري، ج-1، مؤسسة الهداوي، القاهرة، 1934.
6. جرجي زيدان، تاريخ أدب اللغة العربية، مؤسسة الهداوي للتعليم و الثقافة، القاهرة، 2012. (<http://www.hindawi.org>)
7. شوقي ضيف، تاريخ الأدب العربي، دار المعارف، القاهرة، 1960.
8. Аль-Фахури X. История арабской литературы.Т.1. Пер. с арабского. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1959.
9. إحسان الناس، الخطابة العربية في عصرها الذهبي، دار المعارف، القاهرة، 1963.
10. أحمد محمد الحوفي، فن الخطابة، ط 4، دار نهضة مصر للطباعة والنشر، القاهرة، 1978.
11. الإمام محمد، أبو زهرة، الخطابة (أصولها، و تاريخها في أزهر عصورها عند العرب)، دار الفكر العربي، الكويت، 1980.

